

HALQARO EKOLOGIK MUNOSABATLARDAGI KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH YULLARI (MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MISOLIDA)

Sayibov Furqat

Mutaxassislik: Ma'naviyat asoslari

2-bosqich

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizda va tabiatimizda ro'y berib turadigan ekologik muammolar va tabiatimizga qarshi zidiyatli qarama-qarshilikni oldini olish, ekologik muammolarni oldini olish to'g'risida bayon etilgan

Insoniyat sivilizatsiyasi-biosfera tabiiy-tarixiy va koevolusion rivojlanishi qonuniy natijasi bo'lib uning hozirgi bosqichida planetamizdagi ekologik munosabatni saqlab qolish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek kelajak avlodlarga ozod va obod Vatanni qoldirish biz uchun olamshumul muammolar darajasiga ko'tarildi. Jahon Sog'liqni saqlash halqaro tashkiloti xulosalariga ko'ra dolzarbligi jihatidan tabiiy atarof muhitni muhofaza qilish muammosi yadro urushi xavfini bartaraf qilish bilan bir qatorda turadigan eng muhim vazifa deb e'tirof etilmoqda. Chunki dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. yani yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham ekologik tanglik xavfi biogenitek buzulishlar xavfi xaman taxlikali holda saqlanib qolmoqda.

Haqiqatdan ham hozirgi kunda bir tamondan yadro quroliga ega bo'lgan mamlakatlar o'zaro kelishuvi asosida "Sovuq urush siyosati asta -sekin bartaraf etilib planetar mashtabda bu xavf-xatar oldini olish imkoniyatlari reallashib borishi bilan tabiatni muhofaza qilish muammosi oldingi o'ringa chiqmoqda. Ikkinchi tamondan tabiatga antropogen antropogenitik, antropotexnogen, antropopolitik va boshqa sun'iy ta'sir yunalishlari kompleks xarakteri turli mintaqalardagi iqtisodiy, siyosiy, demografik, etnografik vaziyatlar keskinlashuvi "inson-tabiat" munosabatlarini keskinlashtirib yubormoqda. Xalqaro ekologik munosabatlarda bir qator ziddiyatli muammolar mavjudki ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan: Markaziy Osiyo mintaqasida Orol ekologik muammosi

Ikkinchidan: Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan qishloq xujaligi va sanoatda noto'g'ri foydalanish

Uchinchidan: Iloq-Vaxsh yorig'i xududida Tojikiston Respublikasi tamonidan qurilayotgan Rog'un GESining qurilishi va uning ijtimoiy -ekologik oqibatlarini,

To'rtinchidan: O'zbekistonning janubiy chegarasida faoliyat ko'rsatayotgan Tojikiston Alyuminiy zavodi (Talko) bu zavodning atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlari natijasida bu atrofda yashayotgan aholining salomatligiga jiddiy zarar etmoqda.

Beshinchidan: Zarafshon va Amudaryoning yuqori oqimida Tojikistonning yoki Sirdaryoda Qirg'izistonning sun'iy suv omborlarini Qambarota GESi kaskadining qurish loyixalari mintaqada ekologik vaziyatni keskinlashtirib yuborishi mumkin.

Oltinchidan: Markaziy Osiyo mintaqasida to'planib qolgan maishiy va sanoat chiqindilari muammosi. O'zbekistondan 30 km masofada Moyli Suv (Qirg'iziston) daryosi qirg'oqlarida 23 chiqindixona va 13 ag'darmalarda katta xajmdagi radioaktiv chiqindilar saqlanadi. Bu regional ekologik halokat manbasidir. Sel yoki surilma

natijasida bu chiqindilarning Moylisuv Qoradaryo va Sirdaryoga tushishi O'zbekistondan 300 km kvadrat maydonda 1,5 mlndan ortiq aholi yashaydigan hududda ekologik halokat keltirib chiqarishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarida hozirgacha boy berilgan vaqtni va imkoniyatni qoplash uzoq muddatli strategik taraqqiyotning yangi paradigmalari mafkuraviy postulatlarini, arxetikturasining konturlari shakllanmoqda. Lekin hududdagi ayrim davlatlarda mavjud ijtimoiy -iqtisodiy tanglik umumiy ekologik muammolar echimiga halaqit bermoqda. Bu davlatlar o'rtasida garchi antoganistik tarzida bo'lmasada, lekin bir qator konfliktlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Rog'un GESining qurilishi va elektr energiyasini eksport qilish maqsadida yirik to'g'onning qurilishi buning yaqqol misolidir. To'g'on buzilsa yoki terroristlar tamonidan portlatib yuborilsa suv oqimi GESning butun kaskadi (6 ta gidrouzel)ni vayron etadi.

Vaholanki, hududidagi davlatlarning ekologik siyosati sohasigi strategik vazifalari siyosiy murosani XXI asr realligidan kelib chiqqan holda qurishni taqazo qiladi.

Buning uchun:

1) Har bir davlat va mintaqaning konkret ekologik vaziyatini, tabiatga putur yetkazayotgan texnogen omillari potensialini ijtimoiy makon chegaralarini o'rganish markazini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bunday tajribalar jahon miqyosida mavjud, ya'ni Rim klubi, YUneskonning "Inson va biosfera" dasturlari metodologik-tashkiliy baza bo'lib xizmat qilishi mumkin;

2) Xalqaro ekologik munosabatlarni muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqarishni ekologik talablar asosida loyihalashtirish, qurish va ekologik ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ularning investitsiyasini, infrastrukturasini ekspertizadan o'tkazish uchun xalqaro ekologik inspeksiyaning tashkil qilish;

3) Global ekologik tadbirlarni loyihalashtirish dasturlashtirish va amalga joriy qilishdagi xalqaro kelishuvlarni o'z vaqtida sifatli bajarish xuquqiy

mexanizmlarini takomillashtirish davlatlarning ekologik ma'suliyati va majburiyatlarini ma'muriy -huquqiy organlar ishini muvofiqlashtiruvchi xalqaro ekologik siyosiy institutlar faolyatini kuchaytirish;

4) Global ekologik muammolar echimini topishning iqtisodiy- moddiy, texnik- texnologik, markazlashgan xalqaro ekologik fond tuzib, dunyo miqyosidagi turdosh fondlar bilan munosabatlarni o'rnatish;

5) Global ekologik monitoringni kuchaytirish, uning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashdan tashqari xalqaro ekologik kosmik nazorat tizimiga kiritish kerak.

Bunday umumbashariy vazifalarni bajarish O'zbekistonning o'z yuli bilan bozor iqtisodiyotiga o'tishi huquqiy-adolatli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish manfaatlarini, maqsadlarini ekologik ta'minlashdan tashqari umuminsoniyatning sivilizatsiyasini saqlab qolishga qo'shadigan hissasi hamdir.

Zero XXI asrda keskinlashayotgan va globallashtayotgan ekologik muammolar echimini topish zaruriyati umuminsoniyatning barqaror rivojlanish strategiyasini belgilaydigan yangi siyosiy munosabatlar modelini yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu haqida: "Global ijtimoiy muammolar jumladan ming yillik rivojlanish maqsadlari doriasida," "Regionalizm

orqali globalizm sari” formulasi bo'yicha samarali, mintaqaviy mexanizmlar yaratish yo'li bilan hal etilishi lozim. Bu sohada milliy taraqqiyotimizning O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tamonidan belgilab berilgan : iqtisodiy, siyosiy , ma'naviy rivojlanish tamoyillarga asoslanishi ichki va tashqi siyosatni halqimiz tamonidan qullab - quvvatlanayotganligi bu vazifalarni amalga oshirishning ishonchli kafolatidir. Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyo mintaqasidagi mavjud ekologik muammolarni faqat konsensus (murosay - madora yo'li) bilan hal qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "Orol muammolar, ularni aholi genafondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun halqaro hamkorlik chora -tadbirlari " xalqaro konferensiya ishtirokchilariga 2008 yil 12 martda yo'llagan tabrigidan.

I.A. Karimov O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.

2. O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasi. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 5-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996.43-44-betlar.

3. Mamlakatni modernziyatsa kilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-j.-Toshkent:O'zbekiston 2008.

Ilmiy rahbar:

f.f.d. prof. T.Maxmudov

Magistrantlarning XV ilmiy konferensiyasi materiallari-2015